

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB da 2025-yil yakuni bo‘yicha korrupsiyaga qarshi  
kurashish tizimining amal qilishi haqida  
UMUMIY HISOBOT**

**I. Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari bajarilganligi to‘g‘risida umumiy ma’lumot**

Bugungi kunda bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi faoliyatini tartibga soluvchi 23ta ichki me’yoriy hujjatlar mavjud.

Bankning 2025-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga asosan:

- korrupsiyaga qarshi kurashish doirasidagi maqsadlar;
- korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 5-martda o‘tkazilgan yig‘ilishda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha belgilab berilgan eng muhim vazifa va maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha yo‘l-xaritasi;
- monitoring nazorat tadbirlari rejasi;
- xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari bo‘yicha o‘quv-trening dasturi;

**03.04.2025-yilda** “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda Bank xizmatlari ko‘rsatishda ochiqlik va shaffoflikni, raqamlashtirish va inson omilini qisqartirish sari mavzusida matbuot anjumani o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2025-yil 6-avgustdagi 1/11-sonli “Davlat ulushi mavjud tijorat banklarida korrupsiyani oldini olish bo‘yicha ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini ta’minlandi.

O‘zsanoatqurilishbank (SQB)da 2022-yilda joriy etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining xalqaro mezonlarga to‘liq muvofiqligi yana bir bor tasdiqlandi.

Joriy yil avgust oyida o‘tkazilgan xalqaro kuzatuv auditi natijalariga ko‘ra, bank faoliyati ijobiy baholandi va “Cert International” tashkiloti tomonidan ISO 37001:2016 standartiga muvofiqlik sertifikatini qayta taqdim etildi.

**28.11.2025-yilda** Bosh bankda 9-dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi.

**02.12.2025-yilda** Qoraqalpog‘iston respublikasida 9-dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi.

**03.12.2025-yilda** Qashqadaryo viloyatida 9-dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi.

**04.12.2025-yilda** Xorazm Qashqadaryo viloyatida 9-dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi.

**04.12.2025-yilda** Jizzax Qashqadaryo viloyatida 9-dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi.

**05.12.2025-yilda** Farg‘ona Qashqadaryo viloyatida 9-dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi.

**05.12.2025-yilda** Toshkent viloyat BXO Qashqadaryo viloyatida 9-dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi.

**05.12.2025-yilda** Toshkent shahar BXO Qashqadaryo viloyatida 9-dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi.

**12.12.2025-yilda** Navoiy Qashqadaryo viloyatida 9-dekabr – “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi.

## **II. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bankda qabul qilingan ichki me‘yoriy hujjatlar**

**Bank Kuzatuv Kengashining** tegishli qarorlari bilan korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha quyidagi ichki me‘yoriy hujjatlar tasdiqlangan:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (25.08.2022-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Nizom (27.08.2025-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish siyosati (25.08.2022-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi nizom (07.01.2024-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning Odob-axloq Kodeksi hamda unga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar (26.09.2023-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibi (26.09.2023-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda affillangan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hisobga olish va oshkor qilish tartibi (26.09.2023-yil).

**Bank Boshqaruvining** tegishli qarorlari bilan korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha quyidagi ichki me‘yoriy hujjatlar tasdiqlangan:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti (09.02.2024-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi (24.03.2023-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish tartibi (09.02.2024-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillaring samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti (10.05.2022-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish tartibi (16.10.2023-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korrupsiyaga qarshi menejment tizimini nomuvofiqliklar va tuzatuvchi choralarini boshqarish bo‘yicha tartib (10.05.2022-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining ichki auditini o‘tkazish tartibi (24.03.2023-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizom (24.03.2023-yil);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shartlari (20.05.2022-yil);

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda biznes-hamkorlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma (10.05.2022-yil);

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibi (08.09.2023-yil).

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati hamda uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risida nizom (29.09.2025-yil);

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning xodimlar bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi nizom (05.09.2025-yil);

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish va etika sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma (30.12.2025-yil);

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma (30.12.2025-yil);

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish jarayonida kontragentlarni tekshirish tartibi (30.12.2025-yil).

Mazkur hujjatlar bankning “Intranet” dasturiga joylashtirilgan hamda barcha xodimlar ulardan ish faoliyatida foydalanish imkoniyatiga ega.

### III. Xavf-xatarlarni baholash

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti” (ro‘yxat raqami: 3383, 31.08.2022-yil) hamda bank faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibiga asosan amalga oshirildi.

Bank faoliyatidagi asosiy funksiyalar bo‘yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholangan. Baholash jarayonida jami **22 ta funksiya** ko‘rib chiqilgan hamda ularning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi aniqlangan. Jumladan 10ta maqbul (past), 11ta o‘rtacha va 1ta yuqori xavf-xatarlar mavjud deb belgilandi va tasdiqlandi.


Funksiyalarning aksariyat qismi **o‘rta** va **past** darajadagi xavf-xatar toifasiga kiritilgan, kreditlash faoliyati esa **yuqori** xavf darajasiga ega ekanligi aniqlangan.

Aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tegishli tashkiliy, nazorat va profilaktik choralar amalga oshirilgan. Xususan, ichki nazorat mexanizmlari kuchaytirilgan, tartib-taomillar qayta ko‘rib chiqilgan hamda monitoring jarayonlari yo‘lga qo‘yilgan.


Ko‘rilgan choralar natijasida funksiyalarning mutlaq ko‘pchiligi bo‘yicha **qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past** darajaga tushirilgan. Kreditlash funksiyasi bo‘yicha esa qoldiq xavf **o‘rta** darajada saqlanib qolgan bo‘lib, mazkur yo‘nalishda doimiy kuchaytirilgan nazorat tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur baholash natijalari bankda korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi samarali joriy etilganligini hamda xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rilganligini ko‘rsatadi.


Dastlabki korrupsiyaviy xavf darajalari



Chora-tadbirlardan keyingi qoldiq xavf darajalari



2025-yilda 2024-yilga nisbatan korrupsiyaviy xavf-xatarlar tarkibida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Xususan, **o'rta darajadagi xavf** 15 tadan 11 taga kamaygan, **past darajadagi xavf** esa 7 tadan 10 taga oshgan. Bu amalga oshirilgan profilaktik va nazorat chora-tadbirlari samarali bo'lganini ko'rsatadi.



Shuningdek, bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya va lavozimlar ro'yxati shakllantirilgan, 2025-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maqsadlar belgilangan hamda o'quv-trening mashg'ulotlarini o'tkazish yuzasidan reja-dastur tasdiqlangan.

Joriy holatga ko'ra, korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi **23 nafar xodimda past**, **208 nafar xodimda o'rta**, **7 nafar xodimda yuqori** deb baholangan.

#### IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

##### Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining tegishli qarorlari bilan:

- "O'zsanoatqurilishbank" ATB manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf etish Siyosati.

- "O'zsanoatqurilishbank" ATBda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan.

Mazkur hujjatlar bilan bankda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf etish tartiblari, shuningdek manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilishning qoidalari belgilangan.


Bankda manfaatlar to'qnashuvi holatlari kelib chiqishini oldini olish maqsadida quyidagi holatlarda deklaratsiyalar taqdim etilishi belgilangan:

- vakant bo'lgan bo'sh ish o'rinlarga nomzodlarni lavozimga tayinlash va (yoki) rotatsiya qilishda;
- yillik deklaratsiyalar;
- Mavjud manfaatlar to'qnashuvi yoki Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelgan holatda.

Joriy yilning yakuni bo'yicha 2025-yil uchun **3978 nafar** xodimlar manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar taqdim etishdi.

- Taqdim etilgan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar tahlili natijalariga ko'ra Bosh bank xodimlarida **140ta** holatda "Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" hamda hududiy tarmoq (BXO va BXM)lar xodimlarida **73ta** holatda "Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" va **5ta** holatda "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi" mavjud deb belgilandi va

mazkur holatlarni bartaraf etish yuzasidan hujjatlar bankning Odob-axloq komissiyasi muhokamasiga kiritilib, mazkur komissiyaning 2025-yil 30-apreldagi 8-sonli, 23-sentyabrdagi 9-sonli va 30-dekabrdagi 10-sonli qaroriga asosan tegishli chora-tadbirlar ko‘rildi.



### **Bank xodimlarining tadbirkorlik subyektlarining ta’sischisi, rahbari yoki ushbu subyektga aloqadorlik holatlari.**

2025-yilda bank tizimida jami 297 ta tadbirkorlik subyektlariga aloqadorlik holati aniqlangan bo‘lib, ushbu holatlar 258 nafar xodimga to‘g‘ri kelgan.

Aloqadorliklarning 132 tasi Bosh bankda, 165 tasi hududiy bo‘linmalarda qayd etilgan bo‘lib, hududlar ulushi yuqori ekanligi kuzatilgan.

Aniqlangan holatlarning asosiy qismi — 246 tasi ( $\approx 83\%$ ) ta’sischilik, 51 tasi ( $\approx 17\%$ ) esa rahbarlik (direktorlik) faoliyatiga to‘g‘ri kelgan.

2025-yilda aniqlangan aloqadorlik holatlari bo‘yicha asosiy qismi ixtiyoriy ravishda bartaraf etilgan: **165 ta** holatda tadbirkorlik faoliyati tugatilgan, **91 ta** holatda esa xodimlar ta’sischilik va rahbarlikdan chiqarildi.

Shu bilan birga, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish imkoni bo‘lmagan holatlarda **25 nafar** xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi.

Qo‘shimcha ravishda, **16 ta** tadbirkorlik subyekti hujjatlar asosida xodimlarga emas, balki boshqa shaxslarga tegishli ekanligi aniqlangan va aloqadorlikdan chiqarildi.

### **Korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini shartnomalariga kiritish holati.**

Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shartlar Bank Boshqaruvining 20.05.2022- yildagi 56/7-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Bank Boshqaruvining 25.10.2022-yildagi 127/3-sonli qarori bilan “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bank hisobvarag‘i shartnomasi va mijoz hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatishga doir boshqa shartnomalarni tuzish bo‘yicha hamda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kredit va kredit ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalarni tuzish bo‘yicha tavsiyalarida tavsiyalar:

Bank Boshqaruvining 14.12.2023-yildagi 368-sonli qarori bilan “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kredit mahsulotlarining pasportlariga muvofiq ishlab chiqilgan namunaviy kredit shartnomalari tasdiqlangan. Mazkur qarorlarga ko‘ra bankning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlari:

- bank xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq shartnomalarga;

- bank mahsulotlari bo'yicha shartnomalarga;
- kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga;
- xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalarga kiritilishi ta'minlanmoqda.

### **Kontragentlar va ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish holati.**

#### **Kontragentlarni tekshirish yuzasidan.**

2025-yil davomida bank tomonidan jami **2 437 ta kontragent** o'rganilgan.

O'rganilgan kontragentlarning:

- **569 tasi** to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar orqali,
- **670 tasi** eng yaxshi takliflarni tanlash (tender) orqali,
- **1 198 tasi** fuqarolik-huquqiy shartnomalar (yollanma) orqali jalb qilingan.

Tekshiruvlar natijasida jami **78 ta turli xildagi salbiy holatlar** aniqlangan bo'lib, jumladan:

- bank xodimlari bilan aloqadorlik (manfaatlar to'qnashuvi) holatlari — **29 ta**,
- affillanganlik holatlari — **15 ta**,
- faoliyat ko'rsatmayotgan kontragentlar — **4 ta**,
- kontragent faoliyat turi xarid predmetiga muvofiq emasligi holatlari — **11 ta**,
- boshqa aniqlangan holatlar (sanksiyalar, soliq majburiyatlari, sud nizolari va boshqalar) — **19 ta**.

Aniqlangan holatlar yuzasidan belgilangan tartibda tegishli choralar ko'rilgan, xavf darajasiga qarab shartnomaviy munosabatlar qayta ko'rib chiqilgan hamda mas'ul bo'linmalarga axborot kiritilgan.


Mazkur tekshiruvlar bank faoliyatida korrupsion va moliyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qilgan.

#### **Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish.**

2025-yil 1-oktyabr kuni holatiga bank tizimiga 789 nafar xodim ishga olingan va ularga nisbatan tekshiruvlar o'tkazilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan o'rganilgan nomzodlar;

| Ishga qabul qilish va rotatsiya jarayonlarida o'rganilgan nomzodlar soni | Rad etilgan nomzodlar soni | Shundan | Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari | Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish holatlari | Lavozim yo'riqnomasi talablariga javob bermaslik holatlari |
|--------------------------------------------------------------------------|----------------------------|---------|---------------------------------------------|------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------|
| 321                                                                      | 72                         |         | 13                                          | 37                                                   | 22                                                         |




## V. Ta'lim va kommunikatsiya.

Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida huquqiy ongini yanada oshirish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida bank tizimida 2025-yilda o'quv-trening mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha reja-dastur tasdiqlangan va belgilangan muddatlarda o'quv-treninglar o'tkazildi.

2025-yil yakuniga Bosh bankning **43ta** tarkibiy bo'linmasida va **45ta** hududiy tarkibiy bo'linmalarda (*BXO/BXM, Markazlarda*) jami **91ta** o'quv-seminarlar tashkil etilib, tarkibiy bo'linma xodimlariga bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari bo'yicha **3241 nafar** xodimlar o'qitildi.

| №  | Hudud nomi                             | Tadbirlar soni | Qatnashganlar soni | OAVda chiqishlar soni | Izoh                                              |
|----|----------------------------------------|----------------|--------------------|-----------------------|---------------------------------------------------|
| 1  | Qoraqalpog'iston Respublikasi          | 3              | 64                 | 2                     | Televideniye                                      |
| 2  | Andijon viloyati                       | 6              | 141                | 0                     | —                                                 |
| 3  | Buxoro viloyati                        | 3              | 83                 | 1                     | Gazeta                                            |
| 4  | Jizzax viloyati                        | 1              | 34                 | 1                     | Gazeta                                            |
| 5  | Qashqadaryo viloyati                   | 3              | 52                 | 1                     | Gazeta                                            |
| 6  | Navoiy viloyati                        | 2              | 30                 | 1                     | Gazeta                                            |
| 7  | Namangan viloyati                      | 1              | 56                 | 1                     | Gazeta                                            |
| 8  | Samarqand viloyati                     | 3              | 58                 | 1                     | Elektron OAV                                      |
| 9  | Sirdaryo viloyati                      | 2              | 69                 | 2                     | Gazeta                                            |
| 10 | Surxondaryo viloyati                   | 3              | 92                 | 1                     | Gazeta                                            |
| 11 | Xorazm viloyati                        | 1              | 39                 | 1                     | Gazeta                                            |
| 12 | Farg'ona viloyati                      | 3              | 123                | 2                     | TV – 1, Gazeta – 1                                |
| 13 | Toshkent viloyati                      | 12             | 267                | 1                     | Gazeta                                            |
| 14 | Toshkent shahri                        | 18             | 377                | 1                     | Gazeta                                            |
| 15 | “O'zsanoatqurilishbank” ATB Bosh banki | 30             | 1756               | 28                    | TV – 2, Radio – 8, Matbuot – 3, Elektron OAV – 15 |
|    | <b>JAMI</b>                            | <b>91</b>      | <b>3241</b>        | <b>44</b>             |                                                   |

2025-yil: Hududlar kesimida o'tkazilgan tadbirlar ulushi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi **PF-71-son** Farmoni bilan tasdiqlangan amaliy chora-tadbirlar dasturida vazirlik va idoralar xodimlarini “Huquqni muhofaza qilish virtual akademiyasi”da maxsus chuqurlashtirilgan o'quv kurslarida malakasini

oshirish lozimligi belgilangan bo'lib, shunga ko'ra bankning **100 nafar** rahbar xodimlari "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish" mavzusida **24 soatlik** hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatining **28 nafar** xodimlari "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini samarali ishlashini ta'minlash" mavzusidagi **36 soatlik** masofaviy maxsus chuqurlashtirilgan o'quv kurslarida malakasi oshirildi. Shuningdek, bank mas'ul tarkibiy bo'linmalarining **37 nafar** xodimlari xalqaro ta'lim muassasasi — "**CERT ACADEMY GROUP**" XKning "**ISO 37001:2025** — Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi xalqaro standarti bo'yicha ichki auditor/menejer" yo'nalishidagi maxsus o'quv kursida o'qitildi.


Joriy yil davomida bank xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari bo'yicha "Google Forms" dasturi orqali onlayn tarzda test sinovlari o'tkazildi.

Test sinovlarida **jami 2214** nafar bank xodimlari ishtirok etishdi. Shundan:

- 36 foizi** (801 nafar) Bosh bank;
- 7,6 foizi** (169 nafar) Toshkent shahar;
- 7 foizi** (156 nafar) Toshkent viloyati;
- 3,5 foizi** (79 nafar) Sirdaryo viloyati;
- 6,8 foizi** (151 nafar) Farg'ona viloyati;
- 3,1 foizi** (69 nafar) Namangan viloyati;
- 2,2 foizi** (47 nafar) Andijon viloyati;
- 2 foizi** (44 nafar) Jizzax viloyati;
- 4,5 foizi** (99 nafar) Samarqand viloyati;
- 2,8 foizi** (62 nafar) Qashqadaryo viloyati;
- 6,7 foizi** (148 nafar) Surxondaryo viloyati;
- 3,3 foizi** (72 nafar) Navoiy viloyati;
- 7,5 foizi** (164 nafar) Buxoro viloyati;
- 2 foizi** (43 nafar) Xorazm viloyati

**5 foizi** (110) nafari Qoraqalpog'iston Respublikasi BXM/BXO xodimlaridan iborat.

Test sinovida qatnashgan xodimlarning **59 nafari** test sinovlarida qoniqarli natijaga erisha olmagan. Bu umumiy qatnashchilar sonining **2,7 foizini** tashkil etadi. Test sinovlarida qoniqarli natijaga erisha olmagan **59 nafar** xodimlarni takroriy ravishda o'qitish hamda qaytadan test topshirish choralari ko'rildi.




Test natijalardan kelib chiqib, xodimlarning bilim va ko'nikmalari umumiy holda qoniqarli darajada ekanligini ko'rsatgan.

Kelgusida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari bo'yicha maqsadli treninglar o'tkazib borish, shuningdek, test sinovlarini davriy ravishda tashkil etish orqali xodimlar bilim darajasini muntazam tarzda oshirish va doimiy nazorat qilib borish yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilishi ma'lum qilinadi.


Shuningdek, bank mijozlari va xodimlari o'rtasida "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish maqsadida **anonim so'rovnoma** o'tkazildi. Bunda, anonim so'rovnoma "Google Forms" dasturi orqali shakllantirilib, respondentlarga real vaqt rejimida unda ishtirok etishiga imkoniyat yaratildi.

**So'rovnomada** respublika bo'yicha barcha hududlardan jami **6764 nafar respondent** ishtirok etdi. Respondentlarning **420 nafarni** Toshkent shahri, **844 nafarni** Toshkent viloyati, **682 nafarni** Sirdaryo viloyati, **398 nafarni** Farg'ona viloyati, **321 nafarni** Namangan viloyati, **342 nafarni** Andijon viloyati, **155 nafarni** Jizzax viloyati, **331 nafarni** Samarqand viloyati, **244 nafarni** Qashqadaryo viloyati, **1731 nafarni** Surxondaryo viloyati, **311 nafarni** Navoiy viloyati, **418 nafarni** Buxoro viloyati, **173 nafarni** Xorazm viloyati va **394 nafarni** Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiga to'g'ri keladi.




O'tkazilgan so'rovnoma tahlillariga ko'ra quyidagilar aniqlandi.


**1. Respondentlarning asosiy qismi- 6484 nafari bank xizmatlarini ko'rsatishda ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga amal qilinayotganligini bildirgan.**




2. Bank xizmatlarini raqamlashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga 5593 nafari respondent tomonidan “Yaxshi”, 1044 nafari tomonidan “Qoniqarli”, 127 nafari tomonidan esa “Qoniqarsiz” baho berilgan.




3. Bankda korrupsiya darajasini 5275 nafari respondent tomonidan “Bankda korrupsiya yo‘q”, 848 nafari tomonidan “O‘rtacha”, 641 nafari tomonidan esa “Yuqori” baho berilgan.




4. Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan bank xizmatlari sifatida kredit ajratish jarayoni 3532 nafari, Bank omonatlari va xalqaro pul o‘tkazmalarini 533 nafari, Bank kartalari bilan bog‘liq operatsiyalarni 626 nafari, Hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko‘rsatishni 570 nafari, Lizing xizmati ko‘rsatilishini 939 nafari, Faktoring xizmati ko‘rsatilishini 456 nafari, Valyuta amaliyotlari bo‘yicha xizmati ko‘rsatilishini 428 nafari, shuningdek, 1994 nafari respondentlar tomonidan Davlat dasturiga kiritilgan loyihalarini moliyalashtirilishini ko‘rsatib o‘tishgan.




5. Bank xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilganligiga duch kelganligi to'g'risidagi savolga 5958 nafari respondent "Yo'q duch kelmaganman" deb javob bergan, shuningdek, 365 nafari Kredit ajratish jarayonida, 122 nafari bank omonatlari va xalqaro pul o'tkazmalarida, 124 nafari Bank kartalari bilan bog'liq operatsiyalarda, 107 nafari Hisob-kitob va kassa xizmatlari ko'rsatilishida, 69 nafari Lizing xizmati ko'rsatilishida, 70 nafari Faktoring xizmati ko'rsatilishida, 59 nafari Valyuta amaliyotlari bo'yicha xizmat ko'rsatilishida, 93 nafari Davlat dasturiga kiritilgan loyihalarni moliyalashtirish bilan bog'liq jarayonlarda korrupsiyaviy holatlarga duch kelganligini ma'lum qilgan.




6. Bankda xodimlarni ishga qabul qilish jarayoning shaffofligini 5998 nafari "Ijobiy" baholagan bo'lsa, 536 nafari "Tanish-bilishchilik" bilan, 119 nafari "Qarindosh-urug'chilik" bilan va 111 nafari "Pora evaziga" ishga kiriladi deb bildirgan.




7. Bank xizmatlaridan foydalanishda va boshqa holatlarda "tanish-bilishchilik"dan foydalanganlik to'g'risidagi savolga 6002 nafari ishtirokchilar "Yo'q" deb javob berishgan bo'lsa, 325 nafari Kredit mahsulotlaridan foydalanishda, 104 nafari Bank omonatlari va xalqaro pul o'tkazmalarida, 115 nafari Bank kartalari bilan bog'liq operatsiyalarda, 100 nafari Hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatishda, 67 nafari Lizing xizmati ko'rsatilishida, 32 nafari Faktoring xizmati ko'rsatilishida, 46 nafari Valyuta amaliyotlari bo'yicha xizmat ko'rsatilishida, 75 nafari Davlat dasturiga kiritilgan loyihalarni moliyalashtirishda va 104 nafari Ishga kirish jarayonida bunday holatlar uchraganligini qayd etgan.




8. Bankning qaysi BXO yoki BXMdagi korrupsiyaga moyillik darajasi yuqori degan savolga 6644 nafari respondent tomonidan “Bunday holat mavjud emas” deb javob berishgan qolgan ishtirokchilarning 46 nafari Bosh bankda, 1 nafari Termiz BXOda, 1 nafari Qo‘ng‘irot BXMdagi, 1 nafari Jizzax BXMdagi, 1 nafari Amir Temur BXMdagi, 1 nafari Toshkent Shahar BXOda, 1 nafari Qo‘qon BXMdagi, 1 nafari Al-Xorazmiy BXMdagi, 1 nafari Namangan BXOda, 1 nafari Surxondaryo BXOda, 1 nafari Olmazor BXMdagi, 1 nafari Qoraqalpog‘iston BXOda, 1 nafari Buxoro BXOda, 1 nafari O‘rta biznes markazida, 4 nafari barchasida deb javob berishgan va 57 nafar ishtirokchi javobiga aniqlik kiritishmagan.



9. So‘rovnoma yakunlariga ko‘ra, 6764 nafari respondentlarning 6429 nafari bank tizimida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi holatlarining oldini olishga qaratilgan ishlar samaradorligini “Ijobiy” baholagan bo‘lsa, 335 nafari “Salbiy” baholagan.



10. Bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini oshirish bo‘yicha 3853 nafari respondent quyi bo‘g‘indagi bank xodimlarining oylik ish haqlarini oshirish, 2124 nafari elektron bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish, 2001 nafari korrupsiyaga qarshi targ‘ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish, 26,5 nafari esa bank xodimlarining xatti-harakatlari ustidan nazoratni kuchaytirish takliflarini bildirishgan.



### **So'rovnomma yakunlari bo'yicha quyidagilar taklif etildi:**

bank xizmatlari ko'rsatilishida inson omili ishtirokini kamaytirish, xususan, raqamlashtirish yo'nalishidagi ishlarni yanada jadallashtirish va takomillashtirish orqali mijozlarga bank xizmatlaridan "24/7" rejimida onlayn tarzda foydalanishni kengaytirib borish, jumladan, bankning "SQB BUSINESS" va "SQB Mobile" dasturlari orqali ko'rsatiladigan xizmat turlari hajmi hamda ko'lamini doimiy ravishda ko'paytirib borish;

jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan chakana bank xizmatlarida axborot texnologiyalari yutuqlari keng joriy etilishi bo'yicha tizimli ishlarni jadal olib borish. Jumladan, "Face ID" tizimini samarali qo'llash va doimiy takomillashtirib borish orqali mijoz ishtirokisiz operatsiyalar amalga oshirilishini oldi olinishi, ichki va tashqi nojo'ya harakatlar (firibgarlik, korrupsiya) natijasida mijoz mablag'lari talon-taroj qilinishi bilan bog'liq salbiy omillar yuzaga kelish riskini "0"ga tushirish yuzasidan doimiy ravishda ishlarni olib borish;

Andarrayting tizimini rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlarni izchil davom ettirish, xususan, andarrayterlar ish faoliyatini tezlashtirish va optimallashtirish maqsadida "Andarrayting moduli"ni mijozlarning moliyaviy holati va garov obyektlarini ortiqcha byurokratiyasiz o'rganish maqsadida mazkur modulni tashqi manbalar bilan integratsiya qilish ishlarini faol tarzda davom ettirish;

mijozlarga kredit ajratilishida qo'llanilayotgan "SCORING" tahlil va baholash tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish, mazkur tizim orqali soxta va asoslanmagan hujjatlar asosida firibgarlik yo'li bilan kredit ajratilishini oldini olish borasidagi ishlarni faol tarzda davom ettirish;

bankdagi barcha bo'sh ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni bankning rasmiy veb-saytida muntazam ravishda e'lon qilib borish va ma'lumotlarni yangilab turish tizimi doimiy ravishda ishchi holatda bo'lishini hamda nomzodlardan hujjatlarni elektron shaklda qabul qilish uchun maxsus onlayn platforma yoki veb-sayt orqali avtomatlashtirilgan ariza yuborish mexanizmini joriy etish.


### **VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar**

2025-yil davomida Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga Korrupsiyaga haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali, shuningdek Bankning tarkibiy bo'linmalari va boshqa manbalaridan jami 25 ta murojaat kelib tushgan. Kelib tushgan murojaatlar aloqa kanallari reyestriga ro'yxatga olingan.


Kelib tushgan murojaatlarning:

- 2 tasi Ishonch telefoni (0-800-120-8888) orqali,
- 1 tasi Telegram kanal – SQB AntiKor (@sqbantikor\_bot) orqali,
- 3 tasi Bankning rasmiy veb-sayti (compliance-hotline) orqali,
- 19 tasi Bankning tarkibiy bo'linmalari va boshqa manbalar orqali kelib tushgan.

Aloqa kanallari bo'yicha murojaatlar soni (jami 25 ta)



Eng ko‘p murojaatlar Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri kelib, 7 ta murojaat qayd etilgan. Shuningdek, Toshkent viloyati va Farg‘ona viloyatidan 4 tadan, Qashqadaryo, Jizzax va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan 2 tadan, Andijon, Buxoro, Namangan va Surxondaryo viloyatlaridan esa 1 tadan murojaat kelib tushgan.



- Ichki xavfsizlik departamentini xabarnomasi, Qashqadaryo BXO boshqaruvchisining xatti-harakatlari yuzasidan;
- Aloqa markazi xabari, Jizzax BXO mijoz menejerining xatti-harakatlari yuzasidan;
- Pochta orqali Bank xodimlarining xatti-harakatlari ustidan qilgan murojaati bo'yicha to'liq javob ololmaganligi yuzasidan;
- aloqa kanallari orqali yo'llagan murojaati yuzasidan javob xatiga qoniqmaganligi yuzasidan;
- Bosh bank xodimining xatti-harakatlari yuzasidan;
- Olmaliq BXM xodimlarining ipoteka kredit ajratilishidagi xatti-harakatlari yuzasidan;
- Al-Xorazmiy BXM boshqaruvchi o'rinbosari mijozlar bilan bo'lgan xatti-harakatlari yuzasidan;
- Namangan BXO xodimlarining mijozlarga kredit ajratilishida xatti-harakatlari yuzasidan;
- Mijoz Abu Sahi BXMdanda kredit olish jarayonida BXM rahbari va xodimlarining xatti-harakatlari yuzasidan;
- Angren BXM Mijoz menejer tomonidan kredit ajratilishidagi xatti-harakatlari yuzasidan;
- Abu Sahi BXM xodimlarining xatti-harakatlari ustidan yuzasidan;
- Qo'qon BXM menejerining xatti-harakatlari ustidan xabar;
- Qo'qon BXM xodimlarining xatti-harakatlari ustidan xabar;
- Rakat BXM xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan xabar;
- Andijon BXO Bank xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan xabar;
- Angren BXM Katta biznes menejerining xatti-harakatlari ustidan xabar;
- Buxoro BXO yollanma xodimi xatti-harakatlari ustidan xabar;
- Kirgili BXM boshqaruvchisi o'rinbosari va kichik biznes menejerining xatti-harakatlari ustidan xabar;
- Jizzax BXO xodimi tartibga zid ravishda harakatlari yuzasidan (KPI ko'rsatgichlar sun'iy ravishda bajarish yuzasidan) xabar;

- Qashqadaryo BXO xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan(IIB dan kelgan xatni ro'yxatga olmaganligi yuzasidan) xabar;
  - Surxondaryo BXOda Oravit Kermik MCHJ ga ajratilgan krediti bo'yicha auksion savdolarida Bank xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari ustidan xabar;
  - Qoraqalpog'iston BXO xodimlari tomonidan Bank siri oshkor qilinishi bo'yicha xabar;
  - Qoraqalpog'iston BXO katta biznes menejeri B.Dauletmuratov tomonidan kredit ajratilishidagi noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan xabar;
  - Farg'ona BXO xodimlarining avto kredit ajratilishidagi xatti-harakatlari yuzasidan xabar;
  - Bank xodimi dan 14 000 AQSH dollari miqdorida pul mablag'larini qarzga olgani, qarz summasini ustiga foiz hisoblab 23 600 AQSH dollari talab qilayotganligi yuzasidan xabar;
- Korrupsiya fakti bilan bog'liq murojaatlar ning 16 tasida korrupsiya fakti tasdiqlangan, 8 tasida esa korrupsiya fakti tasdiqlanmagan. 1ta murojaat bo'yicha hozirgi kunda xizmat tekshiruvi o'tkazilmoqda.

## **VII. Monitoring va nazorat.**

2026 yil 1 yanvar holatiga:

OAV va ijtimoiy tarmoqlarda bank xodimlarining korrupsion xatti-harakatlari haqida ma'lumot mavjud emas;

maxsus aloqa kanallari soz va ish faoliyatida;

bankda aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar reyestri yuritilgan.


2025-yil uchun mo'ljallangan yillik nazorat tadbirlari rejasiga muvofiq yil davomida qo'yidagi hududiy tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi tartib-taomillari bo'yicha monitoringlar 22.01.2025-yildagi 600-sonli va 15.05.2025-yildagi 4947-sonli Farmoyishlarga asosan o'tkazilgan:

- Toshkent viloyati BXOda, Qibray BXM va Chirchiq BXMda(yanvar oyida);
- Andijon BXOda, Bunyodkor BXM, Xonobod BXM, Bekobod BXM, Angren BXM va Olmaliq BXMda(fevral oyida);
- Sirdaryo viloyat BXO, Toshkent shahar BXO va Mirobod BXMda (mart oyida);
- Buxoro BXO, To'qimachilik BXM va Qorovulbozor BXMda (aprel oyida);
- Andijon BXO, Bunyodkor BXM, Xonobod BXM, va Namangan BXOda (may oyida);
- Farg'ona BXO, Qirguli BXM, Qo'qon BXM va Uchtepa BXMda (iyun oyida);
- Rakat BXM, Al-Xorazmiy BXM, Chilonzor BXM, Premium BXM va Sirdaryo BXOda (iyul oyida);
- Surxondaryo BXO, Sariosiyo BXM, Qashqadaryo BXO, Muborak BXM, Mirobod BXM va Korporativ BXO(avgust oyida);
- Olmazor BXM, Samarqand BXO, Amir Temur BXM, Navoiy BXO va Jizzax BXO(sentyabr oyida);
- Sergeli BXM,Yunusobod BXM, Xorazm BXO, Qoraqalpog'iston BXO, Qo'ng'iro't BXM va Taxiato'sh BXM(oktyabr oyida);
- Bekobod BXM, Angren BXM, Olmaliq BXM, Qibray BXM, Chirchiq BXM va Toshkent viloyati BXO(noyabr oyida);
- Toshkent shahar BXO, Yashnobod BXM, Shahriston BXM, Qatortol BXM, O'rta biznes markaz va Undiruv markaz (dekabr oyida);

## VIII. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risidagi xabarlar yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumot

2026-yil 1-yanvar holatiga Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimlari ishtirokida bank xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari, manfaatlar to'qnashuvi, boshqa qonunbuzarliklar bilan bog'liq masalalar to'g'risidagi kelib tushgan xabarlar bo'yicha 21ta xizmat tekshiruvlar o'tkazilib, natijalari bo'yicha tegishli choralar amalga oshirilgan.

Korrupsiya fakti bo'yicha murojaatlar



Xizmat tekshiruvlari natijasida 50 nafar xodimga intizomiy chora qo'llanilib, 25 nafar xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan va 14 ta xizmat tekshiruvi natijalari huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

### Xizmat tekshiruvlari natijalari:

- O'tkazilgan xizmat tekshiruvlari — 21 ta
- Intizomiy chora qo'llangan xodimlar — 50 nafar
- Mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlar — 25 nafar
- Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan materiallar — 14 ta

1. 17.04.2025-yilda Ichki xavfsizlik departamenti xabariga asosan Qashqadaryo BXO boshqaruvchisi (L.Ergashev) ning xatti-harakatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. Xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra 22.04.2025-yilda 2302-sonli buyruq bilan Qashqadaryo BXO boshqaruvchisi (L.Ergashev) bilan, 22.04.2025-yilda 2308-sonli buyruq bilan Muborak BXM boshqaruvchisi (F.Nurmuratov) bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi. Shuningdek 01.05.2025-yilda №04-07/9366-sonli xat bilan Xizmat tekshiruvi natijalari Qashqadaryo viloyati prokuraturasiga yuborildi.

2. 16.05.2025-yilda Aloqa markazidan kelgan xabarga asosan Jizzax BXO mijoz menejeri (A.Abduvaliyev)ning xatti-harakatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. Xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra 19.05.2025-yilda 2947-sonli buyruq bilan Jizzax BXM mijoz menejeri (A.Abduvaliyev) bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi. 09.06.25yilda 3390 sonli

buyruq bank xodimi(D.Xayitov)ga hayfsan intizomiy jazo berildi. 30.05.2025-yilda №04-06/12144-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Jizzax viloyati prokuraturasiga yuborildi.

3. 20.06.2025-yilda Ichki xavfsizlik departamenti xabariga asosan Olmaliq BXM xodimlarining ipoteka kredit ajratilishidagi xatti harakatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. 08.07.2025-yilda SH-109-sonli buyruq bilan Piskent BXM biznes menejeri (A.Xoljigitov) bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi. 08.07.2025-yilda №04-07/15914-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Olmaliq shahar prokuraturasiga yuborildi.

4. 24.06.2025-yilda Ichki xavfsizlik departamenti xabariga asosan Al-Xorazmiy BXM boshqaruvchi o'rinbosari (I.Asqaraliyev)ning mijozlar bilan bo'lgan xatti harakatlari yuzasidan 04.07.2025-yilda xizmat tekshiruvi o'tkazildi. 04.07.2025-yilda 56-sonli buyruq bilan Al-Xorazmiy BXM boshqaruvchi o'rinbosari (I.Asqaraliyev) bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi. 08.07.2025-yilda №04-07/15913-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Chilonzor prokuraturasiga yuborildi.

5. 27.06.2025-yilda Ichki xavfsizlik departamenti xabariga asosan Namangan BXO xodimlari D.Raxmatillaeva, U.Abduraxmanovalar tomonidan mijozlarga kredit ajratilishida noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. -02.07.2025-yilda SH-93 sonli buyruq bilan universal kassir D.Raxmatillaeva bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi, 08.06.2025-yildagi ICH-74 sonli buyruq bilan mijoz menejeri U.Abduraxmanovaga hayfsan intizomiy jazo berildi. 07.07.2025-yilda №04-08/15821-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Namangan viloyati prokuraturasiga yuborildi.

6. 31.07.2025-yilda fuqaro A.Hakimovning Abu Saxiy BXM Markaz rahbari (N.Hidoyatov)ning xati-harakatlari ustidan bergan xabariga ko'ra xizmat tekshiruvi o'tkazildi. 01.08.2025yilda 218-sonli buyruq bilan Abu Saxiy BXM Markaz rahbari (N.Hidoyatov) bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi. 07.08.2025-yilda 4279-sonli buyruq bilan Abu Saxiy BXM mijoz menejeri A.Yakubovaga hayfsan intizomiy jazo berildi. 05.08.2025-yilda №04-07/18384-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Chilonzor prokuraturasiga yuborildi.

7. 21.08.2025-yilda fuqarolar S.Ergashev va R.Naribayevalarning yozma murojaatlari bo'yicha Angren BXMDa xizmat tekshiruvi o'tkazildi. 16.09.2025-yilda 4759-sonli buyruq bilan Angren BXM boshqaruvchisi Yu.Boybekovga hayfsan intizomiy jazo berildi.

8. 03.10.2025-yilda Abu-Saxiy BXM xodimlarining xati-harakatlari ustidan kelgan anonim xabarga asosan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. 07.10.2025-yilda 472-sonli buyruq bilan Abu-Saxiy BXM kichik mijoz menejeri (Z.Sagdiyev) bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi. 27.10.2025-yilda 688-sonli buyruq bilan Abu Saxiy BXM katta universal servis menejeri S.Abdullayevaga hayfsan intizomiy jazo va 27.10.2025-yilda 688-sonli buyruq bilan Abu Saxiy BXM kichik servis menejeri Ye.Zabirovaga hayfsan intizomiy jazo berildi. 12.11.2025-yilda №46-03/27735-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Toshkent shahar prokuraturasiga yuborildi.

9. 21.10.2025-yilda Ichki xavfsizlik departamenti xabariga asosan Qo'qon BXM menejeri (J.Olimov)ning xati-harakatlari ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazilib 15 ta xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi va 5 ta xodimga hayfsan berildi. 30.10.2025-yilda №04-07/26313-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Farg'ona viloyatiga IIB yuborildi.

10. 11.11.2025-yilda Ichki xavfsizlik departamenti xabariga asosan Andijon BXO xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. 12.12.2025-yilda 741-sonli buyruq bilan universal kassir M.Toshmatova bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan. 01.12.2025-yilda 857-sonli buyruq bilan o'rtacha 4 ta xodimga oylik ish haqidan jarima qo'llanilgan.

11. 07.11.2025-yilda Aloqa markazidan kelgan xabarga asosan Angren BXM katta

biznes menejer I.Bairovning xati-harakatlari ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. 13.11.2025-yilda 630-sonli buyruq bilan Angren BXM Katta biznes menejer I.Bairov bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi. 18.11.2025-yilda №04-07/28248-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Toshkent viloyati prokuraturasiga yuborildi.

12. 20.11.2025-yilda Tarmoqlardagi Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimining tezkor ma'lumotiga asosan Jizzax BXO boshqaruvchisi o'rinbosari F.Asrorov xati-harakatlari ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. 07.11.2025-yilda 5407-sonli buyruq bilan 4ta xodimga hayfsan intizomiy jazosi berildi. 09.12.2025-yilda №04-07/30701-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Jizzax viloyati prokuraturasiga yuborildi.

13. 01.12.2025-yilda Tarmoqlardagi Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimining tezkor ma'lumotiga asosan Kirgili BXM boshqaruvchisi o'rinbosari M.Mirzayev va kichik biznes menejeri A.Raximovning xati-harakatlari ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra Kirgili BXM boshqaruvchisi o'rinbosari M.Mirzayev va kichik biznes menejeri A.Raximovning mukofot pulidan(KPI) 30% ushlab qolindi va 09.12.2025-yildagi №04-07/30728-sonli xat bilan Farg'ona viloyati prokuraturasiga yuborildi.

14. 28.12.2025-yilda Tarmoqlardagi Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimining tezkor ma'lumotiga asosan Buxoro bank xizmatlari ofisida yollanma xodimi D.Jaxonov xati-harakatlari ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. 12.12.2025-yildagi ICH-910-sonli buyruq bilan Buxoro BXO xodimlariga (A.Ga'ybullayev, J.Qurbonov, A.Jalolov, F.Sadullaev, Sh.Adhamov) hayfsan intizomiy jazosi berildi. 15.12.2025-yilda №04-07/31318-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Buxoro viloyati prokuraturasiga yuborildi.

15. 05.12.2025-yilda Bank boshqaruvining topshirig'iga asosan Qarshi tumani IIB 28.07.2025-yildagi 41/1898-sonli xati ijrosi bo'yicha Bank xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan(IIB dan kelgan xatni ro'xatga olmagan) xizmat tekshuruvi o'tkazildi. 19.12.2025-yilda 496-sonli buyruq bilan Qashqadaryo viloyati ijro nazorati boshqarish guruhi kichik menejeri (M.Urinov) bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi. 22.12.2025-yilda №04-08/32031-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Qarshi tumani IIB yuborildi.

16. 26.12.2025-yilda Farg'ona shahar prokuraturasining 2025-yil 11-dekabrdagi 300002/2025-320-25 sonli taqdimnomasiga asosan Farg'ona BXO xodimlarining avto kredit ajratilishidagi xatti-harakatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazildi. 2025-yil 29-dekabrda 46-03/32949-sonli xat bilan xizmat tekshiruvi natijalari Farg'ona shahar prokuraturasiga yuborildi.

O'tkazilgan 5ta xizmat tekshiruvi bo'yicha aybdor xodimlar aniqlanmagan.

## **IX. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar**

1. 2026-yil mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va talablari bo'yicha o'quv-treninglar hamda test sinovlarini davom ettirish;

2. 2026-yil uchun bank tizimi bo'yicha xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish va Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatiga kiritilgan xodimlarni "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida maxsus o'qitishdan o'tkazish;

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samarali tashkil etish, manfaatlar to'qnashuvi, aloqadorlik hamda affillanganlik holatlarini oldini olish, ishga qabul qilishda nomzodlarni o'rganish maqsadida hukumatning ochiq ma'lumotlar portalidan foydalanish imkonini yaratish;

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan o'tkazilayotgan aksariyat xizmat tekshiruvlarida xodimlar tomonidan sodir etilgan intizomiy qilmish yoki hatti-harakat uchun intizomiy jazo chorasini qo'llash doirasidagi muddat o'tib ketganligi sababli, intizomiy javobgarlikka tortishning imkoni mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 314-moddasiga asosan intizomiy jazo intizomiy qilmish aniqlanganidan keyin darhol, biroq aniqlangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llaniladi, bunda xodim vaqtincha ishga layoqatsiz bo'lgan yoki ta'tilda bo'lgan davr hisobga olinmaydi. Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi dalolatnoma komissiya tomonidan imzolangan kun xizmat tekshiruvi natijalari bo'yicha aniqlangan intizomiy qilmish aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Intizomiy jazo intizomiy qilmish sodir etilgan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay, taftish yoki moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yoxud auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra esa, u sodir etilgan kundan e'tiboran ikki yildan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin. Ushbu muddatlarga jinoyat ishini yuritish vaqti kiritilmaydi.

Shu sababli, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmalariga korrupsiyaga qarshi tizimning samaradorligini o'rganish bo'yicha auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish yuzasidan vakolat berish maqsadga muvofiq.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish, tizimda avtomatlashtirish va raqamlashtirish mexanizmlarini joriy etish, suniy intellekt orqali korrupsiyaviy xavflarni aniqlash va bartaraf etish imkonini beruvchi modul yaratish maqsadida ushbu tizim joriy etilgan xorijiy davlatlarning davlat organlari va tashkilotlarida, xususan tijorat banklarida tajriba almashish tizimini joriy etish.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish  
xizmati rahbari**



**Sh.Ismoilov**

A small, stylized blue ink signature is located in the bottom left corner of the page.

